

HINDISTON TASHQI SIYOSATIDA AFG'ONISTON MUAMMOSI: ZAMONAVIY QARASHLAR VA MUAMMOLAR

Habibullayeva Sadoqatxon Baxtiyorjon qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Xabibullayevas@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi dolzARB bo'lgan siyosiy vaziyat, ya'ni Afg'onistondagi holat, shu jumladan Janubiy va Markaziy Osiyo mintaqasidagi jarayonlar, bu borada Hindiston xalqaro munosabatlarda Afg'oniston muammosi to'g'risida bayon qilingan. Maqolada muallif ikki davlat o'rtasidagi aloqalar qay darajada ekanligi, Hindistonning Markaziy Osiyoda ayniqsa, Afg'onistondagi geosiyosiy manfaatlari va o'rni, mintaqadagi Afg'oniston muammosi va uning kelib chiqish sabablarini, rivojlanishi va muammoni bartaraf etish yo'llari, bu borada Janubiy Osiyo mintaqasidagi Hindistonning yondashuvi, ikkala davlat o'rtasidagi geosiyosiy aloqalar va Hindiston Afg'onistondagi vaziyatni bartaraf etishdagi qarashlar hamda ijobjiy harakatlari haqida atroflicha yondashgan va mushohada qilgan.

Kalit so'zlar: Hindiston, Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Dehli, Kobul, Pokiston, "Hindiston-Markaziy Osiyo" muloqoti, Tashqi ishlar vaziri, geosiyosat, mintaqa, strategik, pozitsiya, tashqi siyosat, tolison, Pokiston, Xitoy.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasidagi Afg'oniston va undagi ro'y berayotgan jarayonlar e'tiborga egadir. Bu borada Janubiy Osiyo mintaqasidagi Hindistonning geosiyosiy yondashuvi ahamiyatlidir.

Janubiy Osiyo mintaqasida Hindiston tashqi siyosatda Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan yaxshi qo'shnichilik aloqada bo'lib kelgan. Hindiston uchun Markaziy Osiyo mintaqasida Afg'oniston ahamiyatga egadir. Bevosita Hindiston Afg'oniston bilan chegaraga ega bo'lmasada, lekin yaxshi qo'shnichilik aloqada bo'lib kelgan. Hindiston o'zining geosiyosiy manfaatlarini namoyon etishda bevosita Afg'onistonning roli ham bor. Bunda Afg'oniston turli xil mezonlarga tayangan holda namoyon bo'ladi. Avvalo, shu narsa e'tiborga molikki, tarixga nazar tashlanadigan bo'lsa, Hindiston va Afg'oniston qadimdan yagona sivilizatsiya shakllangan makonda qo'shni davlat bo'lishgan. Afg'onistonning o'ziga xosligi shundaki, mamlakat Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'z hududidan o'tuvchi chegaralarni yaxshi qo'shnichilik, o'zaro tushunish

va ishonch chegarasiga hamda ko'p qirrali taraqqiyot hududiga egaligidir. Hindiston ham bu borada yetakchi davlat. Afg'oniston ikkala mintaqani bog'lovchi ko'prik hisoblanadi. Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'ziga xos chegara Afg'onistonning markaziy viloyatlari orqali o'tadi, shu bilan birga mamlakatning shimoliy va shimoli-g'arbiy viloyatlari geografik jihatdan Markaziy Osiyoga, janubiy va sharqiy viloyatlari esa Janubiy Osiyoga yaqinroq. Afg'oniston orqali ushbu mintaqalarni bir biri bilan bog'lash Hindiston uchun katta siyosiy va shu bilan bir qatorda iqtisodiy foyda ham keltiradi. Bu esa Hindistonning geosiyosiy manfaatlari uchun mintaqaviy darajadagi roli va ta'sirini belgilab beradi.

Keyingi asosiy mezonlardan biri, Janubiy Osiyo mintaqasida azaldan Hindiston va Pokiston tashqi munosabatlarda boshqa davlatlar bilan aloqalarga taqqoslaganda, ikkala davlat bir-biri bilan raqobatdosh davlatlar sifatida qaraladi. Ya'ni, bu borada ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida Afg'oniston bilan Hindiston aloqalarida qaraladigan bo'lsa, bu borada Hindiston uchun asosiy raqobatdosh davlat bu- Pokiston. Hindiston esa mintaqadagi geosiyosiy raqobatdosh bo'lgan Pokistonni Afg'onistonga ta'sirini kamaytirishga intildi. Buning sababi shundan iboratki, Dehli rahbariyati Islomobod tomonidan Afg'oniston hududidagi jangari guruhlarning jangari guruhlarning Kashmir tomon yo'naltilish xavfi mavjud, deb hisdoblaydi. Professor Joshi Nirmala Hindistonning bu boradagi manfaatlari xususida quydagicha yozadi: "Hindistonning manfaati diniy ekstremizm va terrorizm markazi sifatida qabul qilmaslikdan iborat. Biroq rasmiy jihatdan Hindiston "tolibon" harakatini Pokiston bilan yaqin aloqaga kirishishi, ularning fundamentalistik kelishivi hamda Jammu va Kashmir harbiy amaliyotlarida afg'on yollanma askarlarining keng jalb qilinishidan tashvishlanadi"¹¹³⁴. Dehli siyosiy tadqiqotlar guruhi direktori Radha Kumarsing qayd etishicha, ko'pchilik afg'onlar Pokistonning afg'on siyosatidagi har qanday harakatlariga qarshi chiqishmoqda va bu jarayonda Hindistonning xavfsizligi afg'on suvereniteti bilan chambarchas bog'liq, deb hisoblashmoqda. Mana shu vaziyatdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda Dehli hukumati Afg'oniston siyosatida rasmiy ravishda Kobul bilan hamkorlik qilishga e'tiborini qaratib kelmoqda. Jumladan, Janubiy Osiyoda aholi soni [1,95 milliard](#) kishini tashkil qilishi, iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlari kuzatilayotganligi va dunyoning bu qismida Hindiston va Pokiston kabi yetakchi mintaqaviy kuchlarning mavjudligi mintaqani Markaziy Osiyo

¹¹³⁴Nirmala J. Indian perspectives on regional approach to Afghanistan // Buyuk ipak yo'lining o'tmishi va hozirgi kuni: rivojlanishning ijtimoiy-madaniy, tarixiy, siyosiy, va iqtisodiy yo'nalishlari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, 25-mart 2013 y. – T.: ToshDSHI, 2013.- P.265

uchun jozibador hamkorga aylantiradi. Bundan tashqari Hindiston Afg'onistonga har tomonlama iqtisodiy, moddiy taraflama aloqalarda ko'mak berib kelmoqda. Xususan, Hindiston Afg'onistonga yordam berish bo'yicha jahonda beshinchi o'rinda, Janubiy Osiyo davlatlari orasida esa birinchi o'rinni egallaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Hindiston Afg'onistonni ijtimoiy-iqtisodiy qayta ishlash, jumladan savdo-sotiq, qurilish, ta'lim, sog'liqni saqlash, energetika va boshqa sohalarda faol ro'y o'ynamoqda. Ushbu sohalarni amalga oshirishda Hindiston diplomatik yo'l va, albatte, temir yo'l bazalarini yo'lga qo'yish orqali ikki tomonlama aloqani o'rnatgan. Mana shu loyihalarini amalga oshirish Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kuchayishiga olib keladi. Mintaqalarni bog'laydigan eng qisqa yo'l sifatida Afg'onistonni kesib o'tadigan avtomobil va temir yo'llarning qurilishi, nafaqat, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikning o'sishiga, balki siyosiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishiga ham turtki berishi mumkin.

Boshqa tomondan, yirik iqtisodiy loyihalarini amalga oshirish ish o'rirlari yaratilishi, davlat byudjeti daromadlarining ko'payishi hamda avtomobil va temir yo'llarning samarali ishlashini ta'minlash uchun xizmat zanjirlarining shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, shu maqsadda Hindiston Afg'onistonning 31 ta viloyatida 116 ta yirik loyihalarini maqsad qilgan bo'lib, Shohut to'g'oni, Kobul va Chorikor shaharlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash va ularni Bomiyon viloyatidagi bandi Amirga bog'lash yo'llarini tashkil etish loyihalari shular jumlasidan¹.

Dehlining rasmiy Kobul bilan ikki tomonlama aloqalari, ayniqsa, 2014-yildan keyin yanada rivojlanadi. Jumladan, 2015-yil 25-dekabrda Hindiston Bosh vaziri Narindra Modi Hindiston tomonidan, 90 million dollarga qurilgan afg'on parlamenti binosini ochib berdi²¹³⁵. Shuningdek, 2016-yil 4-iyunda Narindra Modi Hirotda qurilgan Salma to'g'onini Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'ani bilan birgalikda ochib bergen bo'lsa, 2016-yil 25-dekabrda Afg'onistonga yuqori darajadagi delegatsiya bilan qayta tashrif buyurib, afg'on havo kuchlariga 4 ta maxsus MI-25 hujumkor vertolyotlarini taqdim etgan²¹³⁶. Bundan tashqari, 2017-yildan boshlab Kobul-Dehli, Kobul-Mumbay, Kobul-Kalkutta va Kobul-Armitsar havo yo'nalishlarida

¹³⁵ Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston geosiyosati: monografiya / Bo'ronov S.; - T.: "EFFECT-D". 2021.-204 b.

¹³⁶ India-Afg'anistan Relations // Embassy of India in Kabul: Bilateral Bries, September 2019. <https://eoii.gov.in> > KabulPDF India-Afghanistan Relations.

aviaparvozlar amalga oshirilmoqda⁴¹³⁷. Ag'oniston Prezidenti Ashraf G'anining 2018-yil sentabrdagi Hindistonga tashrifi davomida ham turli sohalardagi hamkorlikni amalga oshirishga doir "Yangi taraqqiyot sherikligi" bitimini (New Development Partnership) kuchaytirishga kelishib olindi.

Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarining Afg'oniston va Hindiston hududi yaqinroq integratsiyasi jarayonida yuzaga keladigan istiqbolli imkoniyatlar bilan bir qatorda, ushbu yo'lda uchrashi mumkin bo'lgan bir qator qiyinchiliklarga ham to'xtalib o'tish lozim. Fikrimizcha, bugungi kunda Afg'oniston geosiyosiy pozitsiyasida yuzaga kelayotgan murakkab jarayonlar Dehli manfaatlariga qarshi bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Birinchi navbatda, bugungi kunda Afg'onistondagi mavjud beqaror vaziyat har qanday loyihalarni amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda, yuqori investitsion xavfi bo'lgan katta sarmoyalarni va yuqori xavfsizlik darajasini ta'minlagan holda ko'plab xorijiy va mahalliy mutaxassislarga ehtiyoji bo'lgan yirik infratuzilma obyektlari bazalariga putur yetkazmoqda.

Ikkinchidan, Afg'oniston hukumati va Pokiston rahbariyati o'rtasidagi kelishmovchiliklar Afg'oniston hududi orqali Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida birlashtiruvchi ko'priq yaratish ishlarini qiyinlashtirishi mumkin. Afg'oniston geosiyosiy dinamikasida rasmiy Islomobodni salbiy tomonidan qabul qiluvchi va uning afg'on mojarosini hal qilishni qo'llab-quvvatlash va muhim ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish bo'yicha ezgu niyatlariga ishonmaydigan ko'plab odamlar guruhi mavjud. Ayniqsa, Afg'oniston hukumati va Pokiston rahbariyati o'rtasidagi mavjud AQSH-TX kelishuvi natijasida Afg'onistonda TX ta'sirining tobora ortib borishi Hindiston rahbariyati oldida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki, Islomobod ta'siri kuchli bo'lgan TX ning hokimiyatga kelishi Dehlining rasmiy Kobul bilan hamkorligini so'roq ostiga qoldirishi mumkin.

Hindistonning Afg'onistonga bo'lgan ta'siriga to'sqinlik qilayotgan muammolardan yana biri, Xitoy-Pokiston hamkorligi bo'lib, bu borada Xitoy-Pokiston koridoriga Afg'onistonni ham jalb qilish kuchaymoqda. Xitoyning Afg'oniston siyosiy jarayonlaridagi ta'siri Pokiston bilan hamkorlik qilish orqali kengayib borayotgan bir sharoitda Hindiston Afg'oniston masalasida AQSh, Eron va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni kuchaytirmoqda.

Keyingi navbatda, Nyu-Dehli va Islomobod o'rtasidagi munosabatlarda saqlanib qolayotgan yuqori darajadagi ishonchszilik va dushmanlik kayfiyati.

¹³⁷ Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston geosiyosati: monografiya / Bo'ronov S.; - T.: "EFFECT-D". 2021.-204 b.

Bu davlatlarning Afg'oniston mojarosini hal qilish bo'yicha munosabatlariga ham ta'sir qilmoqda.

Mamlakatni iqtisodiy tiklash va uning hududida yirik infratuzilma obyektlarini qurish bo'yicha ilgari surilgan rejalar har doim ham Hindiston va Pokistonni teng ravishda jalg qilmaydi. Shu bilan birga, Hindiston Pokistonning AIRdag'i ehtimoliy ustunligini cheklash maqsadida Afg'oniston hukumatining Hindiston tomoni bilan hamkorlik bo'yicha sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Pokiston va Afg'oniston siyosatlari o'rtasidagi ziddiyatlardan foydalangan holda, Hindiston hukumati Afg'oniston hududida o'zining milliy manfaatlarini ilgari surish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida faol harakat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Nyu-Dehlining Kobul bilan yaqin aloqalari va mamlakatning turli viloyatlaridagi keng ishtiroki, Afg'onistonda tinchlik o'rnatish jarayonida Hindistonning alohida ahamiyatini hisobga olgan holda, Afg'onistonda Hindiston tomoni bilan kelishilmagan loyihalarni amalga oshirish muvaffaqiyatsiz va samarasiz bo'lishi mumkin. Hindistonning faol ishtirokisiz va qiziqishisiz Markaziy va Janubiy Osiyo aloqalarini rivojlantirish jiddiy qarshiliklarga duch kelishi mumkin va shu strategiyada Afg'oniston ko'proq Hindiston bilan geosiyosiy aloqada bo'lishi o'rinnlidir.

Afg'onistondagi vaziyatga yondashiladigan bo'lsak, Afg'onistonning ichki muammolari uning tashqi aloqalariga ham ta'sir qiladi. So'nggi yillarda holat shunday tus oldiki, Afg'oniston viloyatlari o'z mamlakatlaridagi qo'shni viloyatlar bilan emas, balki chegaradosh davlatlar bilan iqtisodiyot va xavfsizlik sohasidagi aloqalarni mustahkamlab borishmoqda. Infratuzilma qurish, transchegegaraviy almashinuv va savdo-sotiqni rivojlantirish orqali mamlakat rivojlanishiga yordam berishga harakat qilayotgan Afg'oniston qo'shnilar ma'lum darajada mamlakatning ichki dezintegratsiyasiga hissa qo'shishmoqda. Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlikka Afg'onistonning g'arbiy va janubiy mintaqalarga nisbatan shimoliy viloyatlari kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, mamlakatning janubiy va sharqiy mintaqalari deyarli barcha sohalarda Hindiston va Janubiy Osiyoning xavfsizlik kompleksi bilan yaqin aloqalar o'rnatgan. Bunday sharoitda Afg'oniston viloyatlarining bog'liqligini va integratsiyasini kuchaytirishi mumkin bo'lgan chinakam transafg'on va milliy loyihalarni ilgari surish va maqsadli amalga oshirish juda muhimdir. Bunday rejalashtirish Afg'onistonga qo'shni mamlakatlardan ushbu mamlakat bilan transport-logistika, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy aloqalarni amalga oshirish siyosatini yanada samaraliroq muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Bugungi kunda Afg'oniston-Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi zaif ko'priq hisoblanadi. Afg'oniston Markaziy va Janubiy Osiyo dunyo bo'yicha integratsiya darajasi eng past bo'lgan mintaqalar qatoriga kiradi. Muhim ichki muammolar bilan bir qatorda, Afg'onistondagi beqarorlik omili Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari ichidagi va mintaqalararo o'zaro aloqalarni mustahkamlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ammo, ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, Afg'oniston masalasida har ikki mintaqaga davlatlari tomonidan haddan tashqari sekyuritizatsiyalangan (faqat xavfsizlik masalalariga yo'naltirilgan) tashqi siyosat yo'nalishini olib borish Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo davlatlari manfaatlari uchun konstruktiv natijalarni bera olmaydi. Afg'oniston muammosini desekyuritizatsiya qilish (faqat xavfsizlik masalalari bilan bog'lashdan chetlashish), AIRni kesib o'tadigan va Markaziy Osiyo hamda Janubiy Osiyo mintaqalarini bog'laydigan muhim infratuzilma loyihalarini rejallashtirish va amalga oshirish Kaspiy dengizidan Hind okeanigacha bo'lgan keng mintaqani siyosiy, madaniy-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyasiga turtki bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda har ikkala mintaqani barqaror rivojlanish istiqbollari va xalqaro munosabatlardagi o'rni aynan Afg'onistondagi vaziyat bilan bog'liq. Agar Afg'onistondagi vaziyat ijobiy hal qilinsa, tinchlik o'rnatilsa Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlar yanada mustahkamlanadi. Barqaror, kutilmaydigan harakatlarni amalga oshirmaydigan va jadal rivojlanayotgan Afg'oniston Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi muhim ko'priq, shuningdek zamonaviy sharoitlarda tarixiy Ipak Yo'lini tiklashda muhim rol o'ynashi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarining Afg'oniston mojarosini hal qilishdagi imkoniyatlarini real baholash, ushbu mamlakatda tinchlik o'rnatish va keng qamrovli mintaqalararo hamkorlikni yo'lga qo'yish muhimdir. Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishni cheklaydigan bir qator jiddiy muammolarning mavjudligi bu ikki mintaqani integratsiya qilish va Afg'onistonda murosali tinchlikni o'rnatish maqsadida nostandart yechimlarni ishlab chiqish uchun mashaqqatli yo'lni bosib o'tish zarurligini ko'rsatib turibdi.

Shu jumladan, Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'anining 2018-yil sentabrdagi Hindistonga tashrifi davomida ham turli sohalardagi hamkorlikni amalga oshirishga doir "Yangi taraqqiyot sherikligi" bitimini (New Development Partnership) kuchaytirishga kelishib olindi.

Ta'kidlash joizki, 2019-yil 12-13 yanvar sanalarida Samarqandda o'tkazilgan "Hindiston-Markaziy Osiyo muloqoti"ning dastlabki Tashqi ishlar vazirlari uchrashuvida Afg'oniston Tashqi ishlar vazirining ham ishtiroy etishini

Xitoy va Pokistonning mintaqadagi ta'siriga qarshi Dehlining to'g'ridan-to'g'ri strategik yurishi, deb hisoblash mumkin. Forumlar saroyida o'tkazilgan uchrashuvda O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov va Hindiston Tashqi ishlar vaziri Sushma Svaraj raislik qildilar. Muloqotning alohida yalpi sessiyasida Afg'oniston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Salohiddin Rabboniy boshchiligidagi delegatsiya ishtirok etdi. "Hindiston – Markaziy Osiyo" muloqotining tashqi ishlar vazirlari Afg'onistonning nufuzli delegatsiyasi ishtirokini ma'qulladilar hamda mamlakatni mintaqa va jahon iqtisodiy aloqalari tizimiga jalb etishga xizmat qiladigan qo'shma infratuzilma, tranzit-transport, energetika va boshqa loyihalarni amalga oshirish orqali Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishiga yordam berishga tayyor ekanliklarini ta'kidladilar. 2019-yilning ikkinchi yarmida Toshkentda o'tkazilishi rejalashtirilgan Afg'oniston bo'yicha sakkizinchı mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasini o'tkazishga tayyorgarlik doirasida hamkorlik qilishga tomonlar hozir ekanliklari tasdiqlandi. Shuningdek, ishtirokchilar BMT tomonidan qabul qilingan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasini inobatga olgan holda madaniyat, ilm-fan, ta'lim va sport sohasida hamkorlikda yoshlarga oid loyihalarni amalga oshirishga e'tibor qaratdilar.

Hindiston Tashqi ishlar vaziri o'z nutqi davomida Hindiston, Eron va Afg'oniston bilan birgalikda Chobahor portini ochganini, endilikda mana shu port Afg'onistonni Markaziy Osiyo bilan birlashtiruvchi muhim aloqa vositasi bo'lishini ta'kidladi. Qo'shimcha tariqasida, Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlik o'rnatish, mintaqada terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha va bu borada barchamiz birgalikda kurashamiz deb ta'kidladi o'z nutqi yakunida Hindiston Tashqi ishlar vaziri. Afg'onistonga insonparvarlik yordami ko'rsatish hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishiga ko'maklashish masalalari muhokama etildi. Tashqi siyosat idoralari rahbarlari Afg'onistonlik xotinqizlarni mamlakat ijtimoiy hayotiga jalb etish orqali Afg'onistonda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash muhimligini ta'kidlab o'tdilar. Ishtirokchilar Tashqi ishlar darajasidagi "Hindiston-Markaziy Osiyo" muloqotini Afg'oniston ishtirokida o'tkazishni muntazam davom ettirishga hamda ushbu formatda 2020-yilda Dehli shahrida uchrashishga kelishib oldilar. Bundan tashqari, 2021-yilning 19-dekabrida Dehli shahrida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Kamilov "Hindiston-Markaziy Osiyo" muloqoti tashqi siyosat idoralari rahbarlarining uchinchi yig'ilishida ishtirok etdi. Uchrashuvda Hindiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi siyosat, iqtisodiyot, raqamlashtirish va madaniy gumanitar yo'nalishdagi aloqalarni yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida Afg'oniston e'tiborga molik davlat bo'lganligi uchun

asosiy urg'u shu masalaga to'xtalib o'tildi. Bu davlatni xalqaro yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun unga nisbatan mojarodan keying strategiyani ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Ta'kidlash kerakki, mazkur formatning "Connecting Central Asia" formatidan asosiy farqi, unda Afg'oniston tashqi ishlar vazirining ishtirokidir. Boshqacha aytganda, Hindiston Markaziy Osiyo bilan yaqin hamkorlikni amalga oshirishda faqat Afg'oniston orqali o'tadigan transport yo'laklari istiqbolli hisoblanadi. Jumladan, hozirda Hindiston Xitoyning "OBOR" loyihasiga muqobil hisoblangan Xalqaro Shimol-Janub transport koridorini yaratishni qo'llab quvvatlamoqda. Bu borada Hindistonning Markaziy Osiyoga Afg'oniston orqali bog'lanishida istiqbolli yagona yo'lak Eronning Chobahor porti hisoblanadi. Dehli Afg'oniston siyosatida yuqorida omillarni inobatga olgan holda, hozirda Kobul bilan hamkorlik qilishga asosiy e'tiborini qaratib kelmoqda.

Hindistonning Afg'oniston geosiyosatiga yuqorida keltirilgan tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, Dehli istiqbolda "Tolibon" harakatining har qanday shaklda hokimiyatga kelishidan manfaatdor emasligi, shu nuqtayi nazardan antitolib kuchlari bilan avvalo, rasmiy Kobul bilan hamkorlikni qat'iy davom ettirishini taxmin qilish mumkin.

Umuman olganda, Afg'oniston geosiyosiy tendensiyalarida Yevropa Ittifoqi, Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar va Turkiya singari kuch markazlari ham sezilarli ro'l o'ynaydi. Lekin ushbu kuch markazlarining Afg'onistondagi ta'siri bilvosita xususiyatga ega bo'lib, biz yuqorida tahlil etgan xalqaro va mintaqaviy kuchlarning geosiyosiy ta'siriga qaraganda ikkinchi darajali hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo mintaqalaridagi o'zaro aloqalar, ayniqsa bu borada Hindiston va Afg'oniston aloqalari harakterli jihat- Hindistonning Afg'onistondagi geosiyosiy manfaatlari va bu borada ikkala tomonning yondashuvi, bu masalada nafaqat ikki davlatning, balki boshqa aloqadagi davlatlarning ham o'rni katta bo'ldi. Davlatlar o'rtasidagi uchrashuvlarda Afg'oniston har tomonlama tahlli qilindi va Hindiston ham o'z geosiyosiy manfaatlarini ifoda etdi.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-kurs hind-ingliz guruhi talabasi

Habibullayeva Sadoqatning "Hindiston tashqi munosabatlarida Afg'oniston muammosi: zamonaviy qarashlar va muammolar" mavzusidagi maqolasiga

TAQRIZ

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-kurs hind-engliz guruhi talabasi Habibullayeva Sadoqatning "Hindiston tashqi munosabatlarida Afg'oniston muammosi: zamonaviy qarashlar va muammolar" mavzusidagi maqolasi dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan mavzuga bag'ishlangan bo'lib, maqola yozish talablari asosida ishlab chiqilgan va maqola hozirgi zamon talablariga javob beradigan yo'sinda yozilgan.

Maqola talaba-yoshlarda, xususan har bir tahlilchida Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo o'rtasidagi aloqlalar, Janubiy Osiyo mintaqasidagi Hindistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi Afg'oniston va undagi geosiyosiy manfaatlari haqida bilim va ko'nikmalar shakllantirilgan.

Ushbu maqoladan o'rinni olgan mavzular, yondashuvlar va uslubiy qo'llanmalarning e'tiborli jihat shundaki, maqola mavzusi va undagi mazmun bugungi kundagi ahamiyatga ega bo'lgan mavzuga bag'ishlanganligidadir.

Maqolaning asosiy maqsadi sifatida har bir talaba va foydalanuvchilarga xalqaro munosabatlarga oid ko'nikmalarni va ayniqsa, ikki mintaqaga o'rtasidagi tashqi aloqalarni va manfaatlarlarning nazariy asoslari, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mintaqasining hamkorligi bo'yicha asosiy tushunchalar, Hindistonning Afg'onistondagi manfaatlari va ro'li bo'yicha tamoyillarini amaliyatga tatbiq etgan holda bilim va ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirishdan iborat.

Bundan tashqari maqolada Afg'on muammosi va bu borada ikkala mintaqaning birgalikda olib borayotgan sa'y-harakatlari xususida yetarlicha yondashilgan. Bu masalada nafaqat har ikki mintaqaning davlatlari ishtiroki, balki xalqaro tashkilotlarning yondashuvi, BMT, YI va boshqa rivojlangan xalqaro tashkilotlar bilan olib borilayotgan hamkorligi ham aks ettirilgan.

Ushbu taqriz orqali, Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-kurs hind-engliz guruhi talabasi Habibullayeva Sadoqatning "Hindiston tashqi munosabatlarida Afg'oniston muammosi: zamonaviy qarashlar va muammolar" mavzusidagi maqolasi maqola yozish talablariga mos ravishda yozilgan bo'lib, mavzu yetarlicha tahlil qilingan deb hisoblayman.

**TDShU Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlar kafedrasi
o'qituvchisi
H.Y.AZIMOV**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Nirmala J. Indian perspectives on regional approach to Afghanistan // Buyuk ipak yo'lining o'tmishi va hozirgi kuni: rivojlanishning ijtimoiy-madaniy, tarixiy, siyosiy, va iqtisodiy yo'naliishlari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, 25-mart 2013 y. – T.: ToshDSHI, 2013.- P.265

Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatish jarayonlarida O'zbekiston geosiyosati: monografiya / Bo'ronov S.; - T.: "EFFECT-D" . 2021.- 204 b.

India-Afg'anistan Relations // Embassy of India in Kabul: Bilateral Briefs, September 2019. <https://eoii.gov.in> > KabulPDF India-Afghanistan Relations.

Dixit G. The New Geopolitical Realities in Afghanistan: India's Constructive Role as US Partner // The United Service Institution of India, January 2018 -march 2018. <https://usoifindia.org/publication/usi-journal/the-new-geopolitical-realities-in-afghanistan-indias-constructive-role-as-us-partner/>

Joint Statement: Vision and principles for India-U.S. Comprehensive Global Strategic Partnership // Official website Prime Ministr Narendra Modi, February 25, 2020. <http://www.narendramodi.in/joint-statement-vision> and -principles- for-india-u-s-comprehensive-global-strategic -partnership-548572

Sawhney A. Chabahar Port: Unlocking Afghanistan's Potential // Center for Strategic and International Studies.

<http://www.csis.org/chabahar-port-unlocking-afghanistans-potential>